


## 2019-yil 1-oktabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'yeqtinlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimizda 6497 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2856 taga ko'pdir.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktabr holatiga 32104 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,1 % savdo, 19,1 % sanoat, 9,1 % qurilish, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,0 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.10.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	25289	32104	126,9	100,0

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1953	2469	126,4	7,7
Sanoat	4680	6118	130,7	19,1
Qurilish	2201	2917	132,5	9,1
Savdo	5664	7725	136,4	24,1
Tashish va saqlash	802	979	122,1	3,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1578	2358	149,4	7,3
Axborot va aloqa	432	510	118,1	1,6
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	556	658	118,3	2,0
Boshqa turlari	7423	8370	112,8	26,1

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9951 ta), Urgut (2723 ta), Pastdarg'om (2642 ta) va Samarqand (2311 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (718 ta), Paxtachi (818 ta) hamda Nurobod (918 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 30466 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6274 ta (25,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,0 % savdo, 19,0 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9524 ta), Urgut (2686 ta), Pastdarg'om (2478 ta) Samarqand (2128 ta) va Ishtixon (1596 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (684 ta), Paxtachi (771 ta) hamda Nurobod (861 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-sentabr oylarida 6497 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`satkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2,0 martaga ko`pdir.

### Yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (1946 ta), Samarqand (577 ta), Pastdarg`om (539 ta) va Urgut (443 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (142 ta), Narpay (160 ta) hamda Paxtachi (169 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`satkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2087 ta), sanoat (1581 ta), boshqa faoliyat turlari (691 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (672 ta), qurilish (604 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (477 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (100 ta), axborot va aloqa (128 ta) hamda tashish va saqlash (157 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




**Tijorat korxonalari**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-oktabr holatiga 24926 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5504 ta, oilaviy korxonalar - 3881 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 15021 ta, unitar korxona – 243 ta, aksiyadorlik jamiyati – 30 ta va boshqalar 247 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**


**Mas'uliyati  
cheklangan jamiyati**




**Xususiy  
korxona**




**Oilaviy  
korxona**




**Unitar  
korxona**



**Aksiyadorlik  
jamiyati**



**Boshqalar**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 500 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 124 taga yoki 33,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-oktabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 500 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (235 ta), Urgut (45 ta), Jomboy (39 ta) va Samarqand (30 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (5 ta), Paxtachi (6 ta) hamda Nurobod va Kattaqo'rg'on (8 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 356 tasi qo'shma korxonalar, 144 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faoliik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>500</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh	235	47,0
Kattaqo'rg'on sh	17	3,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	23	4,6
Bulung'ur	17	3,4
Jomboy	39	7,8
Ishtixon	10	2,0
Kattaqo'rg'on	8	1,6
Qo'shrabot	10	2,0
Narpay	5	1,0
Payariq	11	2,2
Pastdarg'om	21	4,2
Paxtachi	6	1,2
Samarqand	30	6,0
Nurobod	8	1,6
Urgut	45	9,0
Tayloq	15	3,0

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 119 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Samarcand shahar (45 ta yoki jamidagi ulushi 37,8 %), Kattaqo'rg'on shahrida (9 ta yoki 7,6 %), Qo'shrabot, Jomboy hamda Samarcand (8 ta yoki 6,7 %) va Oqdaryo, Pastdarg'om hamda Bulung'ur (7 ta yoki 5,9 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Paxtachi va Narpay (1 ta yoki 0,8 %), Nurobod va Tayloq (2 ta yoki 1,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 21 ta, Turkiya Respublikasi 19 ta, Rossiya Federatsiyasi - 18 ta, Koreya Respublikasi – 9 ta hamda Afg'oniston Islom Respublikasi - 10 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida Isroiil Davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (54 ta), savdo (14 ta), qurilish (15 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (17 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (2 ta), tashish va saqlashda (3 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5 ta) tashkil etgan.


**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxona va mikrofirmalar  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

2019-yil 1-oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 24791 tani tashkil qilgan. Bu ko'satkich 2018-yil 1-oktabr holatiga qaraganda 31,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8207 tasi (33,1 %) Samarqand shahri, 2212 tasi (8,9 %) Urgut, 1999 tasi (8,1 %) Pastdarg'om hamda 1842 tasi (7,4 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24791 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 7285 tasi (29,4 %) - savdo, 5767 tasi (23,3 %) - sanoat, 2748 tasi (11,1 %) - qurilish, 2175 tasi (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi,

2247 tasi (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 920 tasi (3,7 %) - tashish va saqlash, 471 tasi (1,9 %) – axborot va aloqa sohasi, 519 tasi (2,1 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2659 tasi (10,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentabr oylarida 6166 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (1881 ta), Samarqand (557 ta), Pastdarg'om (517 ta) va Urgut (411 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (128 ta), Narpay (149 ta), Paxtachi (162 ta) hamda Nurobod (190 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2084 ta), sanoatda (1578 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (672 ta), qurilishda (602 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (475 ta) va boshqa turlarida (388 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (82 ta), axborot va aloqada (128 ta) hamda tashish va saqlashda (157 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-oktabr holatiga 4081 tani tashkil etib, ulardan 3881 tasi yoki 95,1 % faoliyat ko`rsatadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiyligi soni o`rtacha 72,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim .

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,5 % yoki 1263 tasi sanoat, 27,9 % yoki 1082 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,5 % yoki 833 tasi savdo, 8,0 % yoki 311 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 0,7 % yoki 29 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 13 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,9 % yoki 35 tasi qurilish, 1,0 % yoki 40 tasi axborot va aloqa hamda 7,1 % yoki 275 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko`rsak, eng ko`pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to`g`ri keladi.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Samarqand viloyati	1575	100,0
Samarqand sh	399	25,3
Kattaqo'rg'on sh	14	0,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	42	2,7
Bulung'ur	56	3,6
Jomboy	97	6,2
Ishtixon	137	8,7
Kattaqo'rg'on	60	3,8
Qo'shrabot	7	0,4
Narpay	38	2,4
Payariq	135	8,6
Pastdarg'om	186	11,8
Paxtachi	8	0,5
Samarqand	185	11,7
Nurobod	14	0,9
Urgut	74	4,7
Tayloq	123	7,8

2019-yil yanvar-sentabr oylarida 1575 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahri (399 ta), Samarqand (185 ta), Pastdarg'om (186 ta) va Payariq tumanlari (135 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (7 ta) va Paxtachi tumanlarida (8 ta) tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,3 % yoki 525 tasi sanoat, 27,2 % yoki 428 tasi savdo, 26,5 % yoki 418 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,4 % yoki 116 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 7 tasi qurilish, 0,3 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 11 tasi axborot va aloqa hamda 3,5 % yoki 55 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Samarqand viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'lumi  
Tel.:71-230-85-42 (43)**